



CHAKANA BANK XIZMATLARINING TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Urazov Avazbek Abduraxmanovich

Bank moliya akademiyasi MBA Banking fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan Asakabanklardagi chakana bank xizmatlari hamda ularning tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta'siri haqida bo'lib, unda bugungi kundagi tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan chakana bank xizmatlaridagi kamchiliklar, yutuqlar va xorij tajribasini qo'llashda qaysi jihatlari mamlakatimiz iqtisodiy muhiti uchun munosib ekanligi haqida qisqacha fikr bildirilgan. Chakana bank xizmatlaridagi jarayonlar va bosqichlar, ularning ko'lami to'g'risida rejalashtirilgan ishlar to'g'risida so'z yuritdik.

Kalit so'zlar: Asakabank, chakana bank xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari, mobil banking internet banking, bank-mijoz online xizmatlar, xorij tajribasi, zamonaviy xizmatlar.

Kirish:

Har qanday davlatning iqtisodiy qudratini yuqori samarali pul-kredit siyosati va zamonaviy to'lov mexanizmlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Hisob-kitoblar mexanizmining yaxshi yo'lga qo'yilishi va uning aniq ishlashi esa barcha rivojlangan davlatlar taraqqiyotining asosiy poydevori hisoblanadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, O'zbekistonda elektron to'lovlar va elektron tijorat tizimlarini rivojlantirish maqsadida mazkur muhim yo'nalishning tadrijiy rivojlanishini ta'minlovchi zarur huquqiy baza yaratilgan.

"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunning 31-moddasi banklar va mijozlar o'rtaSIDAGI munosabatlarga qaratilgan. Unga ko'ra banklar va o'z mijozlari o'rtaSIDAGI munosabatlар shartnomalar asosida amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu munosabatlар bank va uning mijizi o'rtaSIDAGI huquq va majburiyatlar asosida shakllanishini talab etadi. Bank shartnomada ko'rsatilgan xizmatlarini bajarilishi yuzasidan ma'sul hisoblanadi. Mijoz o'z hohishidan kelib chiqib bankni tanlashini hisobga olsak, bank doimo o'z xizmatlarini takomillashtirib borishi lozim. Xizmatlarni yuqori darajada ko'rsatish bevosita axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan iqtisodiyot tarmoqlari, ayniqsa, bank, moliya va tijorat tuzilmalari faoliyatida keng foydalanish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy



etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2012-yil 16-iyuldag'i "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib - taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2012-yil 18- iyuldag'i "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanadakeng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonda asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Ushbu me'yoriy hujjatlarda plastik kartalar va boshqa elektron to'lov vositalari orqali internet tarmog'idan tovar hamda xizmatlar uchun to'lov imkoniyatlarini rivojlantirish uchun dasturiy-texnik infratuzilmani takomillashtirish, tadbirkorlikda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish maqsadida rag'batlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

Adabiyotlar tahlili.

Mamlakatimiz va xorij olimlarining ko'plab ilmiy ishlarida bank xizmatlari, xususann chakana xizmatlarga aloqador muammolar o'z aksini topgan. Xususan, F.Suyarovning «Chakana bank xizmatlari bozori» nomli maqolasida tijorat banklari chakana xizmatlariga riteyl banking sifatida yondashilib, "Riteyl banking - jismoniy shaxslar uchun ko'plab bank xizmatlarini yetkazib berishdir" degan xulosa qilingan. Rossiyalik oimlar G.N. Beloglazova, A.M. Tavasiyevlarning fikricha, bank xizmatining negizida operatsiya yotadi, ya'ni bank operatsiyasi natijasida bank xizmati yaratiladi va ushbu operatsiya bank mijizi talabini qanoatlantiradi.

Tahlil va natijalar.

Ma'lumki, mamlakatimizda iqtisodiyotga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi korxonalar bilan iste'molchilar o'rtaсидаги о'заро hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda O'zbekistonda elektron to'lovlar, internet global tarmog'i va mobil aloqa vositalari orqali bank sohasi mijozlariga turli xildagi interaktiv xizmatlar ko'rsatish tizimlari joriy etilib, ulardan samarali foydalanilmoqda.

Bugun bank-moliya tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'sib boruvchi global tendensiyasi, bank plastik kartalari miqdorining o'sishi, elektron to'lovlar va elektron tijoratning rivojlanib borishi barobarida mamlakatimizda elektron to'lovlar va elektron tijorat sohasidagi loyihalarning amalga oshirilishi faollashmoqda. Mamlakatimiz bank - moliya muassasalari o'z mijozlariga internet global tarmog'i va mobil aloqa vositalari orqali masofadan turib elektron to'lovlar, "SMS-banking", "Mobil-banking" kabi interaktiv bank xizmatlarni ko'rsatmoqdalar. Shuningdek, statistik, moliyaviy va soliq hisobotlarini taqdim etishda, soliqlar, turli majburiy to'lovlarni to'lashda, ro'yxatga olish, ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirishda, yer maydonlarini ajratish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishda, shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarini kreditlashda davlat, nazorat qiluvchi



organlar bilan tadbirkorlik sub'yeqtisi o'tasidagi bevosita muloqotni, uzlusiz takomillashtirish lozim.

Misol uchun Asakabankda chakana bank xizmatlari borasida ko'plab amaliy ishlar bajarilgan. Bu borada bank moliya bozorining eng jadal rivojlanayotgan segmenti, ya'ni chakana xizmatlari sifati va ko'lamini oshirish maqsadida, mijozlarga tezkor va qulay xizmat turlarini taklif etib kelmoqda. Innovatsion xizmat turlaridan foydalangan holda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishni yanada ommalashtirish maqsadida respublikaning barcha xududlarida 24/7 tizimida faoliyat yurituvchi "Avtomatlashtirilgan to'lov markaz"lari joriy etilib, ularda jami 60 ta milliy valyuta, 28 ta milliy va xorijiy valyutada xizmat ko'rsatuvchi bankomatlar ish faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridaqaytadan ayrim tadqiqot va izlanishlar natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olib, quyidagi takliflarni shakllantirdik:

1) fikrimizcha, respublikamiz banklari amaliyotida plastik kartochkalari bilan operatsiyalarni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu esa aholiga to'lov imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi;

2) debet, kredit kartalar va "Visa", "MasterCard" bilan to'lovlarini amalga oshirish, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalariga banklar tomonidan o'rnatiladigan terminallar sonini yanada ko'paytirish zarur;

3) yuqorida qayd etilgan xorijiy davlatlardagi ayrim tajribalar, xususan, plastik kartalar emitentlariga karta egalari tomonidan har oyda to'laydigan abonent to'lovlarini respublikamiz naqd pulsiz muomalasida hozirga kiritishni maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaymiz. Kelgusida plastik kartalar muomalasi rivojlanib, infrastruktura to'la shakllantirilgandan so'ng ushbu to'lovlar masalasini o'ylab ko'rish mumkin;

4) aholiga iste'mol krediti berishning skoring tizimi ham rivojlangan davlatlarda chakana bank xizmatining muhim tarmog'i hisoblanadi. Respublikamizda ham kredit byuolarining huquqiy asoslari yaratilib, ushbu sohaga e'tiborning oshishi skoring tizimini joriy etish uchun zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Aliqoriyev O. Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'nalishlari. iqt. fan. nom. ... dis. avtoref. –Toshkent, 2011.
- Goncharuk S. A. Institutsionalniye aspektirazvityiye segmenta roznichnih bankovskix uslug: dis. kand. ekon. nauk: 08.00.10 / Sev.-Oset. gos. unt im. K.L. Xeta-gurova -Shaxti, 2018
- Efma-Infosys Finacle Innovation tadqiqoti, 2019 yil. 9. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Asaka Banki Rasmiy sayti .
- www.privetcanada.com ma'lumotlari



5. Interac bo'yicha barcha statistik ma'lumotlar Interac Association, Media: Statistics - www.interac.ca saytidan olingan.
6. M. Bekchanov., R. Po'latov. Kanada: plastik kartochkalar bilan hisobkitob qilish tizimi. Bozor, Pul va Kredit. №6.2012

